

# **Ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov tashkil qilish to'g'risida Nizom**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4805-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom har yili ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov tashkil qilish tartibini belgilaydi.

## **II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

3. Tanlov kimyo va biologiya fanlari yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini oshirish, ta'lim muassasalari uchun ilg'or xorijiy tajriba asosida zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish hamda ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida tashkil etiladi.

4. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi:

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish;

yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradigan hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlashga yo'naltiriladigan kimyo va biologiya fanlarini chuqur o'qitish asosida yoshlarni tayyorlash;

kimyo va biologiya fan o'qituvchilarini faolligini oshirish va o'z fan yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv ilmiy ommabop adabiyotlar yaratilishiga erishish.

## **III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish**

5. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi har yili birinchi chorak oxiriga qadar ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlovni OAV va vazirlikning rasmiy saytida e'lon qiladi.

Tanlovda Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tasarrufidagi ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatayotgan o'qituvchilar, pedagog xodimlar, Fanlar akademiyasi va uning tasarrufidagi ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritgan va yuritayotgan fan mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mualliflar guruhi hamda mustaqil izlanuvchilar (yoshi cheklanmagan holda) qatnashishlari mumkin.

6. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish, g'oliblarni taqdirlash vazifasi Tanlov komissiyasiga;

tanlovga kelib tushgan takliflarni baholash va g'oliblarni aniqlash Tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan Innovatsion rivojlanish vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi vakillaridan iborat Ishchi guruhiga (keyingi o'rinlarda Ishchi guruhi deb yuritiladi) yuklatiladi.

ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov **umumiy o'rta ta'lim**, o'rta maxsus va professional ta'lim hamda oliy ta'lim tizimi bo'yicha bosqichma-bosqich **3 yilda bir marta** o'tkazishni tashkil qilinadi.

7. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan mualliflar o'z takliflari (kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlar qo'lyozmasining elektron va qog'oz shaklidagi nusxasi)ni tanlov e'lon qilingan kundan boshlab har yili iyun oyining 25-sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy. Telefon raqami: 99871 203-32-31, E-mail: **info@mininnovation.uz**) ga taqdim etishlari shart.

Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar o'z takliflarini tanlov komissiyasiga quyidagi hujjatlar bilan birga topshiradilar.

Topshiriladigan hujjatlar ro'yxati:

1. Tanlovda ishtirok etish uchun tanlov komissiyasi nomiga ariza (1-ilova bilan tasdiqlangan).

2. Muallif yoki mualliflar guruhi a'zolarining ma'lumotnomasi.

3. Tanlovga topshirilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlarni Davlat ta'lim standarti, o'quv reja va dasturlari nusxalari.

4. Tanlovga topshirilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlarni ilmiy yoki ta'lim tashkilotlarining Kengash yig'ilishlari muhokamasidan o'tganligi to'g'risidagi bayonnoma ko'chirmasi.

5. O'quv va ilmiy adabiyotlar qo'lyozmasining elektron va qog'oz shaklidagi nusxasi (*Tanlovga avvalgi yilning iyun oyidan boshlab yangi yilning iyun oyigacha muddatda yaratilgan adabiyotlar qabul qilinadi. Avval tanlovda qatnashgan adabiyotlar tanlovga qayta qabul qilinmaydi*).

Ko'rsatilgan muddatdan keyin topshirilgan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi va mualliflarni ogohlantirmasdan tanlovdan chiqarib tashlanadi. Shuningdek, tanlovga topshirilgan adabiyotlar mualliflarga qaytarib berilmaydi.

8. Ishchi guruhi:

tanlovga kelib tushgan adabiyotlarni 20 ish kunida texnik ekspertizadan o'tkazadi.

so'ng bir oy muddatda tanlovga kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqadi va mazkur Nizom bilan tasdiqlangan baholash mezonlari (2-ilova) asosida baholaydi va ekspert xulosasini (3-ilova) to'ldiradi;

baholash natijalariga ko'ra, kimyo va biologiya fanlaridan g'oliblarni aniqlaydi va ular yuzasidan alohida tartibda bayonnomalarni rasmiylashtiradi (4-ilova bilan tasdiqlangan);

tanlovga kelib tushgan adabiyotlarni kamida 7 nafar ekspertlar tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi va baholanishi shart.

tanlov ishtirokchilarini baholashda adolat, xolislik, shaffoflik va qonuniylik tamoyillariga amal qilishlari zarur.

9. Tanlov komissiyasi zaruratdan kelib chiqib, tanlovni o'tkazish tartibiga o'zgartirish kiritishi mumkin (kiritilgan o'zgartirishlar haqida barcha tanlov bo'yicha mas'ullar va ishtirokchilar kamida 3 kun avval tanishtirilishlari shart).

10. Ishchi guruh tanlov natijalarini Tanlov komissiyasiga taqdim etadi va Tanlov komissiyasi xulosalarni ko'rib chiqib, g'oliblarni e'lon qiladi.

#### **IV. Tanlov g'oliblarni taqdirlash**

11. Tanlovni tashkil etish, g'oliblarini taqdirlash O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

12. Tanlovda kimyo va biologiya fanlari bo'yicha g'oliblar alohida aniqlanadi.

G'olib muallif yoki mualliflar guruhi Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 100 million so'mdan bir martalik mukofot pullari bilan taqdirlanadilar.

Bunda g'oliblarni mukofotlash bilan bog'liq xarajatlar Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tegishli moliya yili uchun tasdiqlangan daromadlari va xarajatlari prognoz parametrlarida, ushbu maqsadlar uchun ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

#### **V. Yakuniy qoida**

13. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha sarf-xarajatlar ixtiyoriy ravishda homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar asosida qoplanadi.

Ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov tashkil qilish to'g'risida  
Nizomga 1-ilova

## Ariza namunasi

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov komissiyasiga

\_\_\_\_\_ yashovchi  
\_\_\_\_\_ dan

## ARIZA

Meni ta'lim muassasalari uchun kimyo (biologiya) fanidan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish yuzasidan milliy tanlovda ishtirok etish uchun ruxsat berishingizni so'rayman.

Tanlovga \_\_\_\_\_lar (*muallif yoki mualliflar F.I.Sh.*) muallifligidagi "\_\_\_\_\_" nomli (o'quv / uslubiy qo'llanma, qo'shimcha adabiyot va boshq.) taqdim etilmoqda.

Tanlovning shartlari va baholash me'zonlari bilan tanishdim. Shuningdek, tanlovga topshirilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda hujjatlar qaytarilmasligiga roziman.

*Ilova:*

- 1. Muallif (mualliflar guruhi a'zolari)ning ma'lumotnomasi (obektivka).*
- 2. Tanlovga topshirilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlarni Davlat ta'lim standarti, o'quv reja va dasturlari nusxalari.*
- 3. Tanlovga topshirilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlarni ilmiy va ta'lim tashkilotlarining Kengash yig'ilishlari muhokamasidan o'tganligi to'g'risidagi bayonnomasi ko'chirmasi.*
- 4. O'quv va ilmiy adabiyotlar qo'lyozmasining elektron va qog'oz shaklidagi nusxalari.*

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil.

### Baholash me'zonlari

<b>T/r</b>	<b>Me'zon</b>	<b>Ball</b>
<b>Jami:</b>		<b>100</b>
1.	Taklif etilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotda kimyo yoki biologiya fanini o'qitishda innovatsion yechimlarning qo'llanilganligi	15
2.	O'quv adabiyotlarining davlat ta'lim standartlariga, o'quv rejalari va dasturlariga muvofiqlik darajasi	10
3.	Taklif etilayotgan o'quv materialining uzviyligi va izchilligi ta'minlanganligi darajasi, shuningdek, predmetlararo aloqaning ta'minlanishi	10
4.	Taklif etilayotgan o'quv materialining ilmiy-pedagogik asoslanganligi	15
5.	Predmetga milliy g'oyalarni singdirilganligi darajasi	10
6.	O'quv materialining ta'lim olayotganlarning psixologik va yosh xususiyatlariga, shuningdek, ularning bilimlari darajasiga muvofiqligi	10
7.	Bayon etish tilining ravonligi, taklif etilayotgan materialning ko'rgazmaliligi va ilyustratsiyalarga boyligi	10
8.	Nazariy va amaliy materiallar mazmunan bir-biri bilan uzviy holda ochib berilganligi	10
9.	Taklif etilayotgan maket dizaynining sifati	10